

Published Date:- 18-10-2023

Dramatik diskurs pragmatik xususiyatlari tasnifi

М.Расулова

Oriental Universiteti Ingliz tili o'qituvchisi

munojatruwxona@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada tilshunoslikda dramatik diskurs mohiyati, pragmatik xususiyatlari, antropotsentrik yondashuvga asoslangan tilshunoslik zimmasida shaxs lisonida tushuncha yoki kontsept sifatida mavjud bo'lgan lingvokulturologik birliklarni qiyosiy, sistem-struktur, tavsifiy va tahliliy xarakterda tadqiq qilish masalalari, shuningdek, diskurs, uning mohiyati, tasnifi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *diskurs, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, neyrolingvistika, paralingvistika, gender lingvistikasi*

Annotation

The article deals with the nature of dramatic discourse in linguistics, its pragmatic features, the comparative, systemic-structural, descriptive and analytical research of linguo-cultural units that exist as concepts or concepts in the language of a person under the responsibility of linguistics based on an anthropocentric approach, as well as discourse, its essence, and classification.

Key words: *discourse, linguopragmatics, linguocultural studies, cognitive linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, ethnolinguistics, neurolinguistics, paralinguistics, gender linguistics*

Аннотация

Published Date:- 18-10-2023

В статье речь идет о природе драматического дискурса в языкознании, его прагматических особенностях, сравнительном, системно-структурном, описательном и аналитическом исследовании лингвокультурных единиц, существующих в виде понятий или понятий в языке человека, находящегося под ответственностью лингвистики. об антропоцентрическом подходе, а также о дискурсе, его сущности и классификации.

Ключевые слова: дискурс, лингвопрагматика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, социолингвистика, психолингвистика, этнолингвистика, нейролингвистика, паралингвистика, гендерная лингвистика.

Ma'lumki, har qanday nutqiy ifoda milliy an'analar, til, tarix, adabiyotni o'z ichiga olgan holda shakllangan bo'ladi va o'ziga xos pragmatikaga ega. Xalqaro iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar tilni pragmatikaning aks ettirish vositasi sifatida talqin qilinishiga olib keldi. E.Sepir ta'kidlaganidek: "Til pragmatikani o'rganishda yo'l ko'rsatuvchi vositadir. Tilni o'rganishda nafaqat so'zlar, til birliklari va nutqini, balki o'rganilayotgan til mamlakatining pragmatikasi, dunyoqarashi, turmush tarzi va urf-odatlarini ham bilish muhimdir"¹. Bu esa o'z navbatida, tilshunoslikda yangi sohaning, ya'ni lingvopragmatika evolyutsiyasining paydo bo'lishiga olib keldi.

Til va pragmatika o'rtasidagi determinizm, ya'ni bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikning mavjudligi muhim masaladir. Shuning uchun turli mamlakatlar olimlari til va pragmatika masalasini turli yo'nalishlarda o'rganishlari tabiiy. Bu muammoni taniqli tilshunos olimlar (Yu.Sorokin, V.Teliya, A.Veybitskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Cheyms va boshqalar)² va faylasuflar (G.Brutyan, E.Markaryan va boshqalar), psixologlar (L.Vygotskiy, A.Leontyev, V.Petrenko,

¹ Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. - M., 1993. -- p. 259-265.

² Сорокин Ю. С. Общие принципы словаря. Хронологические границы описания. Источники словаря. Состав словника. (Гл. 1). Характеристика речевой употребительности слова и ее изменений. (Гл. VII) // Словарь русского языка XVIII в. Проект. — Л.: Наука, 1977. — С. 5—27, 107-122 Телиа А. «Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты» (1996).

Published Date:- 18-10-2023

P.Gulviste) o‘z tadqiqotlarida atroflicha o‘rganishgan. Bu masala nutq pragmatikasiga oid tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. (Yu.Skvortsov, E.Begmatov, A.Mamatov, B.O‘rinboev va boshqalar). Keyingi yillarda tilshunoslikning alohida tadqiqot sohasi sifatida rivojlanishi (A.Krasnix, V.Maslova, D.Gudkov, D.Ashurova) bu masalaning dolzarbligini ko‘rsatib berdi³.

Globalashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi pragmatikalararo aloqalar sonining doimiy o‘shishiga olib keladi. Turli pragmatika vakillarining muvaffaqiyatli hamkorligiga hissa qo‘shish, tushunmovchilik sabablarini aniqlash va bartaraf etish va pragmatikalararo muloqot paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bunday takliflar ilmiy bilimlarni gumanistik nuqtayi nazardan umumiy tendensiyasi, fanning “antroposentrik” xususiyatga ega bo‘lish istagi bilan qo‘llab-quvvatlandi⁴. Tabiiyki, antroposentrik paradigmada olib borilgan tadqiqotlar ham, ularni tanqidiy baholaydigan asarlar ham paydo bo‘lishi tabiiy bir hol edi. Pragmalingvistik tadqiqotlarning kengayishi sohaning tadqiq obyekti va chegralarining kengayishiga sabab bo‘ldi. Endilikda aytish mumkinki, pragmalingvistika tom ma‘nodagi tilshunoslikning eng zarur va dolzarb tarmoqlaridan biridir. Soha rivoji, o‘z navbatida, yangi tadqiq qirralarining yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi.

Tilshunoslarning e‘tirof etishicha, pragmalingvistikaga doir tadqiqotlarning lingvokultrurologik aspektda o‘rganilishi bo‘yicha eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham oxirgi o‘n yilliklarda pragmalingvistik yondashuvdagi tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek

³ Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: Академия, 1987. – 284 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс/ В.И. Карасик. – Волгоград, 2002. – 477с. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации/ Д.Б. Гудков. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – 288с.п.л.Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. Хорижий филология. – №3. – Самарканд, 2011. – 32 б.

⁴Караулов Ю. Н. Понятие языковой личности в трудах В. В. Виноградова // Русский язык: Языковое значение в функциональном и эстетическом аспектах: Виноградовские чтения. — М.: Наука, 1987. С. 91–101.

Published Date:- 18-10-2023

va fransuz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag'ishlangan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va pragmatika haqida quyidagilarni yozadi: “Til va pragmatika deganda, ko'pincha, “nutq pragmatikasi” muammosi assotsiativ holda nazarda tutilsa-da, bu ikki o'rindagi pragmatikaning aynan bir xil tushunchani ifodalashini bildirmaydi. Til va pragmatika deganda, odatda til orqali u yoki bu pragmatikani yoki aksincha, pragmatikani o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi pragmatikaning ma'nosi “aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi demakdir. Ma'lumki, lingvokulturologiya fanining obyektni milliy tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunalar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miqlashgan ko'rinishlari: arxitip va miqlar (asotir va rivoyatlar), tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi”⁵.

Dunyoning pragmatik qiyofasini o'rganishda lingvopragmatikashunoslar (N.M.Terebixin, V.N.Toporova, G.D.Gachev) bir qancha tasniflarni keltirib o'tadilar: til umuminsoniy va ularning o'ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan, dunyoning madaniy qiyofasini o'z ichiga oladi; dunyoning madaniy qiyofasida pragmatikaga xos ma'nolar, madaniy qimmatli dominantlar, pragmatikaning ma'lum turlarini tashkil etuvchi, tilda saqlanib qolgan va qo'llaniladigan tushunchalar bo'ladi dunyoning madaniy qiyofasi yagona til pragmatikasi qolipidagi yagona obrazni ifodalamaydi, chunki turli millat vakillari turli qadriyatlarga ega

⁵Mamadjonova N.M. Lingvokulturologik birliklarning nutqidagi o'rni. «Zamonaviy dunyo pedagogika va psixologiya» nomli 10-son ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6323272>

Published Date:- 18-10-2023

bo‘lishi mumkin; dunyoning madaniy qiyofasi nafaqat individual, balki jamoaviy ongda ham mavjuddir⁶.

Xulosa

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so‘zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabatiga bog‘liq masalalar majmuyi kiradi. Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e’tiborini tortish, ularga kommunikativ ta’sir qilish, qiziqtirib qo‘yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg‘itish, hayajonga solish, to‘lqinlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so‘zning, so‘z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma’nosini, ya’ni pragmatik ma’nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. - M., 1993 .-- p. 259-265.
2. Сорокин Ю. С. Общие принципы словаря. Хронологические границы описания. Источники словаря. Состав словника. (Гл. 1). Характеристика речевой употребительности слова и ее изменений. (Гл. VII) // Словарь русского языка XVIII в. Проект. — Л.: Наука, 1977. — С. 5—27, 107-122 Телиа А. «Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты» (1996).
3. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. — М.: Академия, 1987. — 284 с.;
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс/ В.И. Карасик. — Волгоград, 2002. — 477с. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации/ Д.Б. Гудков. — М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. — 288с.п.л

⁶Karasik V.I. Language matrix of culture. - Volgograd, 2012.

Published Date:- 18-10-2023

5.Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. Хорижий филология. – №3. – Самарканд, 2011. – 32 б.

6.Караулов Ю. Н. Понятие языковой личности в трудах В. В. Виноградова // Русский язык: Языковое значение в функциональном и эстетическом аспектах: Виноградовские чтения. — М.: Наука, 1987. С. 91–101.